

3. [Устройство Для Раскалывания Скорлупы](#) абрикосовый косточек Бышов Н.В., Борычев С.Н., Бышов Д.Н., Липина Т.В., Топилин В.П., Липин В.Д., Стафоркин Н.С. патент на полезную модель RUS 164601 11.04.2016

4. Б. Юнусов, А.Мардонов. кинематические и динамические параметры модернизированного устройство для раскалывания косточек, (статья на узбекском языке). Журн. «Агро – илм», № 4 [36]. Ташкент: 2015г., 91с.

5. Орипов Р., Сулайманов И., Умурзаков Э. Қишлоқ хўжалик маҳсулотларини сақлаш ва қайта ишлаш технологияси. Т., Меҳнат, 1991.

OLMA MEVASINI QURITISH JARAYONNI TAKOMILLASHTIRISH.

R.Yangiboyeva - AndMI magistranti

Ma'lumki, mustaqillikka erishganimizdan buyon Respublikamizda olib borilayotgan islohotlar, har bir soha yo'nalishlariga kiritilayotgan yangiliklar hayotimizda ulkan o'zgarishlarini yuzaga keltirmoqda. Modernizatsiya ishlari ishlab chiqarish va qayta ishlab chiqarish sohalarida keng miqyosda amalga oshirilayotgani biz muhandislarni yanada olg'a intilishlariga turtki bo'lmoqda.

2017 yil 6 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada liberallashtirish, eksport qilinadigan yangi meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarning hajmini ko'paytirish va turlarini kengaytirish uchun qulay shart-sharoit yaratish, mahalliy meva-sabzavot mahsulotlarining jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish to'g'risida"gi qarori imzolandi.

Ishlab chiqarishning texnologik vostalarini yangilamay turib, maxsulot ishlab chiqirilishining samaradorligini ortirib yoki yaxshilab bo'lmaydi.

Meva va sabzavotlar yetishtirish va ularni quritishga extiyojimiz ortgan ekan, har tomonlama optimal quritish jarayoniga asoslangan va ayniqsa iqtisodiy samarasi yuqori bo'lgan quritish apparatlarini yaratish ham biz uchun yuqori ko'rsatkichlarda foyda keltiradi. Bunda vaqtni tejash, maxsulot sifatni yaxshilash yoki sonini ko'paytirishgina emas, balki ishlab chiqarishda isrofgarchilikni kamaytirish ham muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda texnologik jarayonlarda quritishning turli usullari mavjud bo'lib, ular asosan kimyoviy materiallar(kraska, sement, polietilen, yog'och, va boshqa qurilish materiallari)ni quritishga mo'ljallangan. Ular oziq ovqat maxsulotlari uchun to'g'ri kelmaydi, chunki oziq ovqat maxsulotlarini quritishda tayyor maxsulotning tarkibidagi vitamin va minerallarining saqlanganligi, mazasi va shu bilan bir qatorda ko'rinishi kabi parametrlari katta ahamiyatga ega.

Masalan, quritishning radiatsion usulida maxsulotga bevosita infraqizil nur ta'sir qildirish orqali quritish amalga oshiriladi, dielektrik usul esa quritilayotgan materialga yuqori chastotali tok maydoni ta'sir ettirilishi bilan amalga oshiriladi.

Bu jarayonlarda katta quvvat manbalariga extiyoj mavjud. Me'yoridan ortiq tok maydonlari yoki infraqizil nur ostida toblangan iste'mol maxsuloti inson organizmiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Quritish jarayonlarining shu

kabi tomonlarini izchil o'rganib, o'lkamizda eng ko'p yetishtiriladigan olma mevasini optimal quritish jarayoni bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqdamiz.

Bilamizki, bog'dorchilikda ko'ngilni eng ko'p achintiradigan holatlardan biri – bu mevalarni yig'ishtirish vaqti kelmasdan to'kila boshlashidir. Ayniqsa, kutilmagan shamoldan so'ng bo'glardagi holat yanada achinarli. Meva har kuni to'kiladi, ularning kunlik miqdori mevani qayta ishlash korxonalariga olib borish uchun yetarli bo'lmaydi. Yetarli miqdorda to'plash uchun bir necha kun kutilsa, mevaning bir qismi yaroqsizga aylanadi. Shu holatda isrof bo'layotgan mevalarni saqlab qolish ham albatta bog'bonlar uchun foyda keltiradi. Yetishtirgan mevaning bir misqolini ham yo'qqa chiqarmaslik yo'llarini o'ylash davr talabidir. Hozirda bu masalalarni yechimini topish mumkin. Buning uchun albatta texnik qurilmalar yaratish borasida tadqiqotlar olib borish darkor.


To'kilgan mevani quritish qadimdan qo'llaniladi. Mevani ochiq havoda yoki quritish moslamalarida quritish mumkin. Quritilgan mevaning sifati quritish jarayoniga va meva sifatiga bog'liq.

Olma mevasini tabiiy ravishda, ochiq havoda quritishda quyidagi jarayon yuz beradi:

Dastlab meva sirtidagi suv bug'lanadi, ichki qismidagi suv esa diffuziya hodisasi tufayli suyuqlik holida yuza sirti tomon harakatlanadi va temperatura ta'sirida bug'lanadi. Tabiiy muhitdagi diffuziya hodisasi bir necha sutkalab davom etadigan jarayon bo'lganligi uchun zamonaviy ishlab chiqarishda uning qo'llanilishi tobora kamaymoqda, shu bilan bir qatorda uning ijobiy jihatlaridan ham voz kechilmoqda.



a)



b)

Shu kunlarda qo'llanilayotgan quritish moslamalarida ma'lum darajadagi issiq havoni haydash, bosimni, namlikni rostlash orqali quritish jarayoni amalga. Bunda maxsulot tayyor bo'lgunga qadar kamida 10-12 soat vaqt sarflanadi.

Qurish vaqtini qisqartirish va quritilgan meva sifatini talab darajasida bo'lishiga erishish maqsadida yangi quritish moslamasi ustida tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu moslama markazdan qochma kuch ta'siri ostida mevani quritishga asoslanadi. Bu kuch meva ichdagi suvni meva sirtiga chiqarishga yordam beradi. Ushbu texnologiya iqtisodiy jihatdan samarali, negaki, bunda beriladigan kuchga sarflanadigan energiya bir vaqtda havo oqimini ham hosil qiladi. Bu esa

bug'lanish jarayonini tezlashtiradi. Hozirda bu moslamaning fizik modeli yaratildi. Bu moslama tabiiy holatda quritishga yaqin bo'lib, meva tarkibidagi foydali moddalar saqlanib qoladi.

УДК: 631.3.07.008:574

ПЎСТЛОҚ МЕВАЛИ ЭКИНЛАР МЕВАСИНИ ПЎСТЛОҒИДАН АЖРАТИШ ҚУРИЛМАСИНИ ИШЛАБ ЧИКИШ.

Ботиров Равшан Махкам ўғли - магистрант ТИҚХММИ

2017-2021-йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида белгиланганидек иқтисодиётни ривожлантириш ва унинг юқори ўсиш суратларини таъминлашда қишлоқ хўжалигини механизациялашнинг ўрни бекиёсдир.

Шундай экан ресурс-тежамкор мини машиналардан кенг ва самарали фойдаланиш, қишлоқ хўжалигини тўлиқ механизациялаш бугунги кун талабидир. Ҳозирги кунда ресурс-тежамкор маҳаллий шароитимизга мос юмшоқ-пўстлоқли меваларни пўстлоғидан ажратиш қурилмасини ишлаб чиқиш ҳам юртимиз қишлоқ хўжалигини механизациялаштиришда олдимизда турган муҳим вазифалардан биридир. Юмшоқ-пўстлоқли қишлоқ хўжалик маҳсулотлари экинлар маҳсулотларини етиштириш ва уни озиқ-овқат учун тайёрлаш техникасини ривожлантириш механика соҳасидаги катта илмий янгиликлар билан боғлиқ ва унинг натижасида кўплаб ҳар хил турдаги машиналар ихтиро қилинган.

Дунёнинг етакчи компаниялари томонидан тизимли равишда қишлоқ хўжалик маҳсулотларини жумладан донли маҳсуларларни қайта ишлаш бўйича саноат даражасида ишлаб чиқиш бўйича бир қатор ишлар амалга оширилган. Хусусан <<Alifar agroimpeks and Engineering>> компанияси томонидан ишлаб чиқарилган АЛМ-700 ,АЛМ-700 ва «РЫБА» қурилмалари ва <<Foodmos>> компанияси томонидан ишлаб чиқарилган «А-300» ва «А-300А» қурилмалари шулар жумласидандир.

Бироқ ушбу қурилмаларнинг барчаси бир хил принципда ишлаши ва таннархининг қимматлиги, импорт килиб сотиб олинганлиги сабабли фойдаланиш харажатларинг ошиб кетишидир. Яна шунингдек уларнинг **асосий камчиликлари – иш унуми паст, электр энергияси сарфи кўп, пўстлоғи ажратилган ер ёнгоқларда шикастланиш даражаси 5-8 фоизни ташкил қилади [1-3].**

Олиб борилган илмий тадқиқотлар асосила ер ёнгоқ пўстлоғини ҳаво ёрдамида ажратиш ва бу қурилмани маҳаллий шароитда ишлаб чиқаришга жорий этиш имкони мавжуд бўлган қурилма лойиҳаланди

1.	Камалова Д., Наврўзбаева Н. Жанубий Орол бўйи тупрокларининг экологик ўзгаришларини ўрганиш.....	182
2.	Мамуров Б. Центральная предельная теорема для квадратичных цепей с двумя генотипами.....	183
3.	М.Матқосимов., А.Султанов. Автомобиллирга майиший техник хизмат кўрсатиш шахобчаларида қуёш энергиясидан фойдаланиш.....	185
4.	М.Махсудов, Д.Долимова. Машинасозлик корхоналарида реактив қувватни компенсациялаш ва уни ишлаб чиқаришни автоматик бошқариш.....	188
5.	Онаркулов К., Раҳматов Ғ. Инфрақизил нурларини иссиқлик алмашинувидаги аҳамияти.....	190
6.	Парпиев О., Маматбеков Ш., Алимжонов А. Бўяш жараёнида ҳаво чангланганлик даражасини салбий оқибатлари таҳлили.....	193
7.	Парпиев О., Шербоев М., Бўронов Б. Смола ишлаб чиқариш технологик жараёнини автоматик бошқарув тизимида бўлган талаблар таҳлили.....	196
8.	Расулов А., Жўраев И., Шохобалиева О. Миллий ва жаҳон web ресурсларининг таълим жараёнида тутган ўрни.....	199
9.	Султонов Р. Маълумотларни хавфсиз узатишда симметрик блокчи шифрлаш алгоритмларининг роли.....	202
10.	Ҳазратова Д. Кимё фанини ўқитишни компьютерлаштириш ва унга инновацион ёндашув.....	206
11.	Ҳазратова Д. Олий таълимда кимё фанини ўқитишда замонавий ахборот технологиялардан фойдаланиш.....	209
12.	Хамрақулова З., Умаров А., Обидов И., Режаббаев М., Солиев М. Нефть ва газ қонларида бурғиловчи эритмалар учун кимёвий реагентлар таркибларни ишлаб чиқиш.....	211
13.	Хасанов Б. Пахта чигитини туксизлантиришда фойдаланилган кўп алангали горелканинг ишлаш принци, кўп алангали газ горелкалари билан қуйдириб ишлов берилган уруғли пахта чигитининг униб чиқиш натижалари.....	214
14.	Хуррамов А., Худойбердиев Ш. Ўрик данаклари кенглиги бўйича динамик қаторга математик – статистик ишлов бериш.....	217
15.	Хуррамов А., Юнусов Б. Мева данакларини чақиш ва мағизини ажратиш қурилмаси.....	220
16.	Yangiboyeva R. Olma mevasini quritish jarayonni takomillashtirish....	225
17.	Ботиров Р. Пўстлоқ мевали экинлар мевасини пўстлоғидан ажратиш қурилмасини ишлаб чиқиш.....	227
18.	Matkarimov J., Mirzaaxmedov M., Mamasoliyev X. Skanerlangan ma'lumotlarni FineReader dasturi yordamida aniqlash va tahrirlashni o'rgatuvchi virtual ko'rgazmalar.....	230
19.	Mirzaaxmedov M., Matkarimov J., Raxmonov O. Informatika va axborot texnologiyalari fanlaridan talabalar bilimini baholashning	232

	zamonaviy usullari.....	
--	-------------------------	--